

BOLANING MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGIDA OILANING ROLI

Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi jarayonida oilaning tutgan o'rni va roli yoritilgan. Bolaning maktabga tayyorligi nafaqat bilim darajasi, balki emotsional, ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyor bo'lishini ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, oiladagi tarbiya, ota-onaning munosabati, uydagi ruhiy muhit, bola bilan olib boriladigan muloqot va qo'llab-quvvatlash usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada oilaning bolaga qanday ijobiy ta'sir ko'rsata olishi, qanday amaliy chora-tadbirlar orqali maktabga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishi mumkinligi haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bola, emotsional qo'llab-quvvatlash, maktabga tayyorgarlik, oila roli, psixologik moslashuv, ijtimoiy ko'nikmalar, ota-ona va bola munosabati, maktabga moslashish, emotsional qo'llab-quvvatlash, tarbiya, oila va maktab hamkorligi.

Bolaning maktabga psixologik tayyorgarlikda oilaning roli ilk bor qadam qo'yishi uning hayotidagi muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bolaning ruhiy holati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati shakllanadi. Ushbu jarayonda eng yaqin ijtimoiy muhit – oila hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktabga moslashuv – bu bolaning yangi ijtimoiy muhitga, ya'ni maktab tartib-qoidalari, sinfdoshlar, o'qituvchilar bilan munosabatlar, intizom va o'quv yuklamalariga psixologik va emotsional tayyorligi. **Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligida oilaning roli** mavzusi ko'plab psixologlar tomonidan

chuqur o'rganilgan. Bu sohada ilmiy izlanishlar asosan bola shaxsining rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va maktabga tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan. Jumladan, Lev Semyonovich Vygotskiyning asosiy g'oyalari ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi Unga ko'ra, bola rivojida oila asosiy "yaqin taraqqiyot zonasi"ni shakllantiradi. Vygotskiy oiladagi ijtimoiy muhit bolaning nutqi, tafakkuri va xulq-atvorining shakllanishida hal qiluvchi omil deb hisoblagan. Aleksandr Vladimirovich Zaporozhets esa, bola harakatlari va psixik rivojlanishi bo'yicha ishlagan va maktabga tayyorgarlikda o'z-o'zini boshqarish va motivatsiya muhim deb hisoblagan. Bular esa oilaviy tarbiya orqali shakllanadi. Daniil Borisovich Elkonin bolaning o'yin faoliyati va u orqali psixik rivojlanishini o'rgangan va ota-onalar bilan emotsional aloqa, bolaning maktabga tayyorlanishida katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatgan.

Moslashuv jarayoni odatda 1–3 oy ichida kechadi, ammo individual xususiyatlarga qarab bu davr cho'zilishi mumkin.

Oilaviy omillar: asosiy ta'sir etuvchilarga quyidagilarni kiritish mumkin.

Emotsional qo'llab-quvvatlash:

Ota-onaning mehribon, quvvatlovchi munosabati bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Uyda xavfsiz va ijobiy muhit mavjud bo'lsa, bola maktabdagi yangi muhitga osonroq moslashadi. Ota-onalarning munosabati maktab va o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat bola uchun namuna bo'ladi. Ota-onaning maktabni qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchilar bilan hamkorligi bola moslashuvini tezlashtiradi. Kun tartibi va mustaqillikda ota-onaning bolani maktabga tayyorlash (erta turish, ovqatlanish, mustaqil kiyinish) borasidagi faoliyati bolaning moslashuv qobiliyatini oshiradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda oila doirasida bolaning muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish qobiliyati shakllantiriladi.

Intellektual tayyorgarlik: o'qish, yozish, sanashga oid boshlang'ich ko'nikmalarni berish.

Emotsional barqarorlik: bolani maktabdagi stresslarga (ajralish, yutuq va muvaffaqiyatsizlik) nisbatan bardoshli qilish.

Motivatsiya berishda esa, bola maktabga nima uchun borishi kerakligini tushunishi kerak — bu oila tomonidan beriladigan tushuncha bilan bog'liq. Amaliy tavsiyalar berishda ota-onalarga ko'rinadi. Shuningdek, bolaga maktab haqida ijobiy taassurotlar berish. Uning his-tuyg'ularini tinglash, qo'rqinch va xavotirlarini jiddiy qabul qilish.

Maktabga tayyorgarlikni bir necha oy oldin boshlash (kitob o'qish, rasm chizish, birga xarid qilish).

O'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash.

Maktabda yuzaga kelgan muammolarni tanbeh bilan emas, suhbat va qo'llab-quvvatlash orqali hal qilish.

Oilaning asosiy vazifalariga emotsional qo'llab-quvvatlash, bola uchun maktabga borish — bu hayotdagi muhim va yangi bosqich va ota-ona bolaning xavotirini kamaytirishi, uni rag'batlantirishi, "sen buni uddalaysan", "maktab juda qiziqarli" kabi ijobiy fikrlar bilan quvvatlashi kerak.

Shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, bola boshqa bolalar bilan muomala qilishni oilada o'rganadi va ota-onalar bolani navbat kutish, yordam so'rash, fikrini ifoda etish kabi oddiy ijtimoiy ko'nikmalarga o'rgatishi zarur. O'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish va ota-onalar bilim olishni qadrlashi, kitob o'qishga qiziqishi orqali bolaga o'rnak bo'lishi mumkin. Uyda bolaga ertaklar o'qib berish, savollarga birga javob topish orqali o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin. Kundalik hayotga tayyorlash va maktab tartibi bilan tanishtirish (erta turish, darsga tayyorgarlik, ovqatlanish va dam olish tartibi). Bolani o'z kiyimini kiyishga, narsalarini yig'ishtirishga o'rgatish, nutq rivojiga yordam berish kerak. Uyda bolalar bilan ko'proq suhbat qurish, fikrini so'rash va tinglash, yangi so'zlarni o'rgatish orqali maktabda darslarni tushunishga tayyorlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bola uchun maktab — bu faqat bilim olish joyi emas, balki shaxs sifatida rivojlanish maydonidir. Unga bu yo'lda yo'lbochi bo'luvchi eng yaqin insonlar — ota-ona va oila a'zolari. Oila tomonidan berilgan ijobiy emotsional zamin, mustahkam munosabat va ko'mak bolaning maktabga

moslashuvida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G' G'oziev. Ontogenez psixologiyasi Toshkent “NIF MSH” 2020. 360 b.
2. I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov. Shaxs va Oila psixologiyasining pedagogikasi. Toshkent – 2009. 125 b.
3. Jumayev, N.Z. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma / N.Z. Jumayev .- Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.-252 b.